



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV SUDI**

100186, Toshkent sh., Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 1

12.07.2024-yil № 01-465-24


**Viloyat va unga  
tenglashtirilgan sudlar**  
(ro‘yxat bo‘yicha)

Topshiriqqa asosan 2024-yilning 15 – 18-iyul kunlari viloyat miqyosidagi sudlarning kadrlar bo‘yicha ish yuritishga mas‘ul xodimlari, malaka hay‘ati kotiblari va tuman miqyosidagi sudlarning devonxona mudirlari uchun O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun-mohiyati, kadrlar va malaka hay‘atida ish yuritishni takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan videokonferensaloqa rejimida seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazish rejalashtirilgan.

Ilova qilinayotgan jadvalga muvofiq mazkur seminar mashg‘ulotlarini yuqori saviyada tashkil etishingiz va barcha ishtirokchilarni xabardor qilishingiz so‘raladi.


Ilova: seminar mashg‘ulotlari jadvali (elektron shaklda).

**Kadrlar boshqarmasi**  
**boshlig‘i**

 — **M. Muxitdinov**

**“TASDIQLAYMAN”**

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy sudi Kadrlar boshqarmasi  
boshlig‘i



**M. Muxitdinov**

2024-yil 16-iyul

**Viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarning kadrlar bo‘limlari  
bosh konsultantlari, malaka hay‘atlari kotiblari hamda tuman  
miqyosidagi sudlarning devonxona mudirlari uchun  
videokonferensaloqa rejimida o‘tkazilgan seminar mashg‘uloti  
BAYONNOMASI**

2024-yil 16-iyul

Toshkent shahri

**Ma‘ruzachi:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Kadrlar boshqarmasining Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat guruhi rahbari S.Nishonov

**Qatnashdilar:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Kadrlar boshqarmasi bosh konsultanti A.Jamolov, katta konsultantlar S.Ibadullayev, M.Axmedov, Sudyalar oliy malaka hay‘ati bo‘limi boshlig‘i D.kabulov, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarning kadrlar bo‘limlari bosh konsultantlari, malaka hay‘atlari kotiblari hamda tuman miqyosidagi sudlarning devonxona mudirlari (ro‘yxat bo‘yicha)

**KUN TARTIBI:**

**“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi  
Qonunining mazmun-mohiyati**

(S.Nishonov, A.Jamolov, D.Kabulov, S.Ibadullayev, S.Nishonov)

Kun tartibidagi masala yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Kadrlar boshqarmasining Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat guruhi rahbari S.Nishonov so‘zga chiqib, seminar ishtirokchilariga “Manfaatlar

to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining mazmun-mohiyatini yoritib berdi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni 2024-yil 5-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolanishi davlat tashkilotlari faoliyatida urug‘-aymoqchilik, tanish-bilishchilik kabi illatlariga chek qo‘yishga huquqiy asos bo‘lganligi ta’kidlandi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 5-iyundagi PQ–210-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirish belgilanganligi aytib o‘tildi:

davlat organlari va tashkilotlarida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash mexanizmlarini samarali joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilish;

davlat organlari va tashkilotlarida manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘luvchi holatlarni o‘rganish, ularni bartaraf etish bo‘yicha qonunchilikka muvofiq bo‘lgan choralarning ko‘rilishida yagona amaliyotni shakllantirish;

davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari, savdo platformalari va boshqa dasturiy ta’minotlari Qonun bilan belgilangan talablarga muvofiq takomillashtirilishini ta’minlash;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlarining manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish hamda hamkorligini rivojlantirish choralarini ko‘rish;

jamiyatda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish bo‘yicha huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish.

Seminar ishtirokchilariga Qonun talablariga muvofiq sud organlari manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasida quyidagi choralarni ko‘rishi zarurligi tushuntirib o‘tildi. Bunda:

xodimlar tomonidan mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabardor qilish tizimini tashkil etishi;

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning va mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomaning belgilangan shaklini o‘zining rasmiy veb-saytlariga joylashtirishi;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda qabul qilingan qarorlarni belgilangan tartibda o‘zgartirishi yoki bekor qilishi;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda tuzilgan bitimlarni o'zgartirishi yoki bekor qilishi yoxud bunday bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risida belgilangan tartibda sudga da'volar bilan murojaat etishi;

odob-axloq komissiyalarining va maxsus bo'linmalarning manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish bo'yicha faoliyatini tashkil etishi;

davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha ichki idoraviy tartibni belgilashi;

aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha xizmat tekshiruvining xolisona tashkil etilishini va uning natijalari odob-axloq komissiyalari tomonidan ko'rib chiqilishini ta'minlashi;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olishda o'rnak bo'layotgan xodimlarni rag'batlantirish choralarini ko'rishi;

manfaatlar to'qnashuvi natijasida fuqarolarga, tashkilotlarga, jamiyatga yoki davlatga yetkazilgan zararning o'rni qoplanishini ta'minlash, shuningdek aholining tegishli davlat organiga yoki boshqa tashkilotga bo'lgan ishonchini tiklash choralarini ko'rishi kabi vazifalarga alohida to'xtalib o'tildi.

O'quv seminari davomida sud apparati xodimlarining Qonun normalariga oid savollariga javoblar berildi.

**Ichki nazorat guruhi  
rahbari**



**S. Nishonov**

